

## YORDAMCHI ELEKTR UZATMALARDA NOSOZLIKLARNI DIAGNOSTKALASH VA BARTARAF ETISH

**Gulasal Aliyeva**

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-sон kasb-hunar maktabi I.CH.T.U.*

**Annotatsiya;** *Ushbu maqolada yordamchi elektr uzatmalarda ko'p uchraydigan nosozliklarning sodir bo'lish sabablari, ularning diagnostikasi va bartaraf etish usullarini ko'rib chiqildi.*

**Kalit so'zlar;** *yordamchi elektr uzatmalar, diagnostikasi, gabarit, optik sistemasi, harakat havfsizligi, yorug'lik asboblari, lampa, avtomobil faralari.*

**Annotation;** *this article examined the causes of the occurrence of most common failures in auxiliary electrical transmissions, their diagnosis and methods of elimination.*

**Keywords;** *auxiliary electrical transmissions, diagnostics, gabarite, optical system, movement safety, light asbb, lamp, automatic headlights.*

Ichki yonuv dvigatel silindrlariga so'rila'digan havojii isitish, dvigateli ni ishga tushirish, uning normal ishlashini ta'minlovchi tizimlar va mexanizmlami nazorat qilish, tunda ishlaganda yo'lni yoritish, tovush va yorug'lik uchun mo'ljallangan asbob- uskunalar hamda ularni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi manbalar majmuasi avtomabillarning elektr jihozlarini tashkil etadi.

Avtomobillarning elektr jihozlarini quyidagi asosiy funksional sistemalarga bo'lish mumkin;

- elektr ta'minot tizimi (generator, uchlanish relesi, akkumulator batareyasi).
- ichki yonuv dvigatelin ni ishga tushirish tizimi (startyor, akkumulator batareyasi, ishga tushirishni yengillatuvchi moslamalar).
- o't oldirish tizimi (tok manbai, o't oldirish g'altagi, o'zgich- taqsimlagich, tranzistor kommutatori, o't oldirish shamlari);
- nazorat-o'Ichov asboblari va diagnostika tizimi (temperatura, bosim sezgich va ko'rsatkichlari, taxometr, spidometr, darak beruvchi lampalar va boshqa).
- yoritish va xabar berish tizimi (bosh yoritish faralari, avtomobil burilishi va to'xtashini ko'rsatuvchi chiroqlar, oldingi va orqadagi fara osti chiroqlar va hokazo).
- qulaylik yaratuvchi asboblari tizimi (oynatozalagichlar, isitgich elektrodvigatellari, konditsionerlar, oyna ko'targichlar va hokazo).
- dvigatel va transmissiyani avtomatik boshqarish tizimi.
- o'tkazgichlar va kommutatsiya jihozlari.

Mazkur mexanizm va qurilmalarning ishlash rejimi elektrodvigatellar, xar hil turdag'i elektr buyumlarning ishonchligiliga bog'liq bo'lib, ishlash qobiliyat 1-TQ va 2-Tq o'tkazisgda tekshirilidi.

Yordamchi elektr uzatmalarda ko'p uchraydigan nosozliklarning sodir bo'lish sabablari, ularning diagnostikasi va bartaraf etish usullarini ko'rib chiqamiz.

1. Elektrdvigatel podshibniklarini moyi yo'q yoki qurib qolgan bo'lsa, motoreduktorni qismlarga ajratib tekshirilgach, podshibniklarga moy suriladi, ortiqcha yeyilgan bo'lsa almashtiriladi.

2. Yakor chulg'amida o'ramar va massaga qisqa tutashuv, chulg'amida uzilish bo'lsa Tester bilan tekshiriladi zarurat bo'lsa elektr dvigatel yakori almashtiriladi.

3. Uyg'otish chulg'amida uzilish bo'lsa Tester bilan tekshiriladi elektr dvigatel almashtiriladi.

4. Kollektor yeyilganligi tufayli lamellararo izolatsiya bo'rtib qolgan bo'lsa kuztish bilan kollektor holati tekshiriladi Kollektor quriladi va yo'l ochiladi.

5. Elektr uzatmani boshqarish zanjiridagi simlarda uzilish bo'lsa zanjir bo'yicha tester yoki NL bilan tekshiriladi va zanjirdagi uzilish bartaraf etiladi.

6. Motoreduktor ish rejimining almashlab ulagichida nosozlik bor bo'lsa NL bilan uning uchlarini almashlab ulagich I va II rejimi qisqichlariga tekkizib tekshiriladi va zaruriyat bo'lsa almashlab ulagich almashtiriladi.

7. Cho'tkalarning yeyilish mahsulotlarining tushishi tufayli kollektor lamellararo tutashuv sodir bo'lganda tester va kuzatish bilan kollektor holati tekshiriladi kollektor jilvir qog'oz bilan tozalanadi, uning yo'li o'tkaziladi.

8. Cho'tkalarning me'yordan ortiq yeyilishi tufayl ularning kollektorga bosib turuvchi kuch susaygan yoki yo'naltirgichlarda osilib qolgan va prujina chozilib qolgan bo'lsa dinomometr bilan cho'tkalarni kollektorga bosib turuvchi kuch tekshiriladi, zaruriyat bolsa cho'tkalar, prujinalar almashtiriladi. Cho'tka ushlagich yo'naltiruvchisi kirlardan tozalanadi.

9. Qisqa tutashuv tufayli saqlagich kuygan yoki reduktor yoki oyna tozalagich pontografi qadalib qolishi tufayl elektrdvigatel zanjiridagi termobimetall saqlagich ishga tushgandatester bian elektr dvigatel zanjiri bo'yicha ketma-ketlik bilan hamda reduktor va pantograph ish qobiliyati tekshiriladi. Kuygan saqlagich almashtiriladi, qisqa tutashuv yoki reduktor va pantograph qadalib qolish xoli bartaraf etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov F. Avtomobilning elektr va elektron jihozları. - «Istiqlol», 2000-yil.
2. Qodirov S. Traktor dvigatellarini unumli ishlatish. «Mehnat», 1989—269-b.
3. Yo'ldoshev Sh.U. Mashinalar ishonchliligi va ularni ta'mirlash asoslari. «O'zbekiston». 1994 — 475-b.
4. Красильников Б.Е., Перлов Б.А., Смежнее М.Н. Лабораторный практикум по технологии производства и ремонта автотракторного электрооборудования. - М.: «Машиностроение». 1986. — 128 с.